

KICHIK MAKTAB YOSHI DAVRIDA DIQQATNING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

*Bozorova Marjona Chori qizi
Termiz davlat universiteti Psixologiya
yo'nalishi 2-kurs talabasi.*

Annotatsiya. Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi bolalarning diqqati rivojlanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Diqqatning fiziologik asoslari, uning turlari va xususiyatlari yoritiladi. Shuningdek, maktab yoshida bolalarda diqqat barqarorligi, jamlanganlik darajasi va o'zgaruvchanligi qanday namoyon bo'lishi muhokama qilinadi. Diqqatni rivojlantirish usullari sifatida o'yin texnologiyalari, rejali ta'lif va qiziqarli materiallardan foydalanish taklif etiladi. Maqolada bolalarning o'quv faoliyati samaradorligini oshirish uchun psixologik va pedagogik tavsiyalar keltirilgan.

Kirish. Kichik maktab yoshi (6–10 yosh) bolaning intellektual, psixologik va ijtimoiy rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi. Ushbu davrda bolalarning diqqati shakllanib, uning barqarorligi, to'planishi va ixtiyoriligi rivojlanadi. Diqqat kognitiv faoliyatning asosiy mexanizmi bo'lib, o'quv jarayonida bilimlarni o'zlashtirish va muvaffaqiyatli ijtimoiylashishda katta ahamiyatga ega. Diqqat insonning biror narsaga e'tibor qaratish bilan ifodalanadigan ruhiy holatidir. Bu obyektga tanlab yo'naltirilganlik va unga e'tiborni qaratish bo'lib, psixologik faoliyatning aniq va tartibli kechishi ustidan nazoratni qo'llab-quvvatlaydigan jarayondir.

Vaqtning har bir alohida momentida bizni juda ko'p qo'zg'atuvchilar: tovushlar, yorug'lik, sezgilar, fikrlar va hokazolar o'rabi turadi. Diqqat tufayli miyamizga tashqi dunyodan bizga qancha kerak bo'lsa, shuncha ma'lumot keladi. Agar diqqat kabi o'ziga xos "filtr" bo'lmasa, miyamiz ortiqcha yuklanishdan qochib qutula olmas edi. Turli-tuman ta'sirotlar ichidan bizning ongimiz biz uchun eng muhim va ahamiyatli bo'lmasa narsa va hodisalarga yo'naltiriladi, boshqa barcha qo'zg'atuvchilar esa bu paytda sezilmaydi, ularning ta'siri tormozlanadi. Shu o'rinda diqqatning nerv-fiziologik assosi haqida to'xtalish maqsadga muvofiqdir.

1. Diqqatning fiziologik asoslari

I.P.Pavlov ta'lilotiga ko'ra, diqqat bosh miya yarim sharlarining yuqori nerv faoliyati bilan bog'liq. Maktab yoshida bolalarning asab tizimi hali to'liq shakllanmaganligi sababli, ularda diqqatning tez parchalanishi kuzatiladi. Biroq, miyaning elastikligi tufayli diqqat mashq qilish orqali rivojlanib boradi.

2. Diqqatning turlari va ularning rivojlanishi

Kichik maktab yoshida bolalarda diqqatning quyidagi turlari shakllanadi:



Ixtiyorsiz diqqat – bola atrof-muhitdan kelayotgan tashqi ta'sirlarga (tovush, rang, harakat) tabiiy ravishda e'tibor qaratadi. Bu yoshda bu turdag'i diqqat ustunlik qiladi.

Ixtiyoriy diqqat – bola o'z harakatlarini boshqarib, ma'lum bir vazifaga diqqatini jamlay oladi. Bu qobiliyat maktab ta'limi jarayonida rivojlanadi.

Postixtiyoriy diqqat – bola ma'lum bir ishga qiziqib, kuch sarflamasdan diqqatini bir muddat saqlab tura oladi. Bu turdag'i diqqat matabning oxirgi sinflariga borib rivojlanadi.

Kichik mакtab yoshida diqqat ixtiyoriy bo'ladi, lekin ancha vaqtgacha, ayniqsa, boshlang'ich sinflarda bolalarning ixtiyorsiz diqqati kuchli va ixtiyoriy diqqat bilan raqobatlashuvchi bo'lib qoladi. Bolada diqqatning shakllanishida uning intellektuallashuvi muhim ahamiyatga ega bo'lib, u bolaning aqliy rivojlanishi jarayonida sodir bo'ladi: dastlab hissiy mazmunga tayanadigan diqqat aqliy aloqalarga o'ta boshlaydi. Natijada bolaning diqqat doirasi kengayadi. Kichik mакtabgacha tarbiya yoshida bo'lajak o'quvchiga diqqat bilan qarash va ketma-ket ikki-to'rt obyektni yetarlicha aniq idrok etish mumkin bo'ladi. Agar katta odam rasmlarni sharhlasa, ularni taqqoslasa, rasmlar o'rtasidagi sabab-oqibat aloqalarini izlasa, bolani bu jarayonga jalb qilsa, natija yaxshilanadi. Olti yoshga kelib bola bir vaqtning o'zida idrok qila oladigan obyektlar soni ko'payibgina qolmay, balki uning diqqatini o'ziga tortadigan predmetlar doirasi ham o'zgaradi. Agar uch-to'rt yoshda bolaning e'tiborini yorqin, g'ayrioddiy narsalar jalb qilgan bo'lsa, olti yoshda tashqi ko'rinishi e'tiborga loyiq bo'lмагan narsalar jalb qiladi. Bolaning qiziqishi tobora ko'proq jumboq, savol tug'dirishi mumkin. Bolaga ilgari yoqib qolgan obyektlarda ham u boshqa narsani sezaga boshlaydi. Shunga qaramay, kichik yoshdagi o'quvchining diqqat hajmi hali kattalarnikiga qaraganda kamroq bo'ladi.

3. Kichik mакtab yoshida diqqatning xususiyatlari

Kichik mакtab yoshida bolalarning diqqati quyidagi xususiyatlarga ega:

Barqarorlik darajasining pastligi – bolalar uzoq vaqt bir vazifaga diqqatini jamlay olmaydi. Dastlabki sinflarda 10-15 daqiqadan ortiq bo'lмагan diqqat davrlari kuzatiladi.

Jamlanganlik darajasining pastligi – bolalar bir vaqtning o'zida bir nechta narsaga diqqat qarata olmaydilar.

Keng qamrovilik – bolalar turli tashqi ta'sirlarga oson chalg'iydi.

O'zgaruvchanlik – bir faoliyatdan boshqasiga tez o'tishga moyillik.

Rivojlanish dinamikasi – bola maktabga moslashgan sari uning diqqati barqarorlashib, o'quv jarayonida samarali ishtirok etish qobiliyatini orttiriladi.

4. Diqqatni rivojlantirish usullari

Bolalarda diqqatni shakllantirish uchun quyidagi metodlar samarali hisoblanadi:

O'yinlar va mashqlar – diqqatni talab qiluvchi o'yinlar (masalan, "Top-tomosha", "Farqlarni top" kabi o'yinlar) bolalarda diqqatni to'plash qobiliyatini oshiradi.

Rejali ta'lism – o‘quv jarayonida tanaffuslarni to‘g‘ri tashkil etish, ma’lum bir reja asosida ish olib borish.

Qiziqarli materiallar – bolalar qiziqqan mavzularda dars o‘tish ularning diqqatini uzoqroq saqlashga yordam beradi.

Mashqlar va texnika – diqqatni oshirish uchun turli interaktiv metodlar (tasvirlar bilan ishlash, audiovizual materiallar) qo‘llaniladi.

Xulosa. Kichik maktab yoshida bolalarning diqqati sekin-asta shakllanib, rivojlanib boradi.

Ushbu jarayonda o‘qituvchilar va ota-onalar bolalarga mos metodlar orqali yordam berishlari zarur. Diqqatni rivojlantirish bolaning muvaffaqiyatli ta’limi va ijtimoiylashuvi uchun muhim omillardan biri hisoblanadi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ананев, Б.Г. (2001). Психология индивидуального развития человека. Москва: Питер.
2. Выготский, Л.С. (1983). Воображение и творчество в детском возрасте. Москва: Просвещение.
3. Галперин, П.Я. (1998). Введение в психологию развития ребенка. Санкт-Петербург: Питер.
4. Запорожес, А.В. (1986). Психология внимания у детей дошкольного и младшего школьного возраста. Москва: Наука.
5. Леонтьев, А.Н. (2003). Деятельность. Сознание. Личность. Москва: Смысл.
6. Mamaradjabova, Bogzada, and Gulbanu Abduganiyeva. "PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF THE MEMORY PROCESS IN LEARNING THE ENGLISH LANGUAGE OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS." *Multidisciplinary Journal of Science and Technology* 4.7 (2024): 237-239.
7. Немов, Р.С. (2005). Психология: Учебник для студентов педагогических вузов. Москва: Владос.
8. Рубинштейн, С.Л. (2000). Основы общей психологии. Санкт-Петербург: Питер.
9. Слободчиков, В.И., & Сукерман, Г.А. (2007). Возрастная и педагогическая психология. Москва: Академия.